

O‘ZBEK KINO MUSIQASINING IJTIMOY-MADANIY OMMALASHUVI VA UNING STRATEGIK RIVOJLANISH MASALALARI

Axmedova Komolaxon

Botir Zokirov nomidagi

Milliy Estrada san’ati instituti

“Kompozitorlik va aranjirovka” kafedrası

o‘qituvchisi, kompozitor.

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.06.2026

Revised: 27.06.2026

Accepted: 28.06.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*kinomusiqa,
dramatizm, kompozitor,
soundtrek, estrada
san’ati.*

Ushbu maqolada O‘zbekistonda kinomusiqa-ning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, uning tarixiy bosqichlari va zamonaviy holati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Kino san’ati tarkibida kinomusiqa-ning dramaturgik va estetik ahamiyati yoritilib, 1950–80-yillar uning yuksalish davri sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, mustaqillik davrida kinomusiqa ishlab chiqarishdagi muammolar va uni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan.

Bugungi globalashuv sharoitida kinematografiya jamiyatning ma’naviy va madaniy hayot tizimida muhim o‘rin egallab, uning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Kino san’ati o‘z mohiyatiga ko‘ra dramaturgiya, tasviriy san’at, aktyorlik mahorati hamda musiqiy san’atning o‘zaro sintezidan tashkil topgan murakkab integrativ badiiy tizim hisoblanadi. Ushbu sintez kino asarining ko‘p qatlamli estetik strukturasi shakllantirib, tomoshabinga kuchli emotsional va psixologik ta’sir ko‘rsatish imkonini yaratadi. Kinomusiqa kino asarining badiiy tizimida muhim dramaturgik vosita sifatida namoyon bo‘lib, u voqealar rivojini emotsional jihatdan boyitish, obrazlarning ichki kechinmalarini ochib berish hamda sahnalarning dramatik ta’sir kuchini oshirish funksiyalarini bajaradi. Shu jihatdan u nafaqat yordamchi element, balki filmning badiiy konsepsiyasini shakllantiruvchi muhim komponent hisoblanadi.

O‘zbekiston kinematografiyasida kinomusiqa-ning rivojlanishi milliy kino san’ati taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq holda kechgan. Dastlabki bosqichlarda musiqa asosan illyustrativ va fon vazifasini bajargan bo‘lsa, keyingi davrlarda u mustaqil dramaturgik ahamiyatga ega badiiy vositaga aylangan. XX asrning 30-yillaridan ovozli kino rivojlanishi bilan kinomusiqa film strukturasi ajralmas qismiga aylandi. Bu jarayonda xalq kuy-ohanglari, maqom elementlari va milliy musiqiy intonatsiyalar keng qo‘llanilib, kinomusiqa-ning milliy estetik asoslari shakllandi.

1960–80-yillar o‘zbek kinomusiqasi tarixida sifat jihatidan yuksalish davri bo‘lib, bu davrda professional kompozitorlik maktabi shakllandi. Simfonik tafakkur, orkestrlashtirish madaniyati, leytmotiv tizimi hamda tematik rivojlantirish usullari keng rivojlandi. Kinomusiqa nafaqat estetik, balki mafkuraviy va tarbiyaviy funksiyalarni ham bajarib, davlat buyurtmasi asosida yaratilgan kino mahsulotlarining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Mazkur davrda kinoteatrlarning ommaviyligi, axborot vositalarining cheklanganligi va markazlashgan kino ishlab chiqarish tizimi kinomusiqaning keng tarqalishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Ko‘plab musiqalar jonli orkestr ijrosida yozib olingan bo‘lib, bu ularning tembr boyligi va badiiy sifatini oshirdi. Natijada leytmotiv asosidagi musiqiy tizimlar kino obrazlari va syujet rivojini ifodalovchi muhim dramaturgik vositaga aylandi hamda radio va televideniye orqali keng ommalashdi.

1950–60-yillar o‘zbek kinomusiqasi taraqqiyotida muhim bosqichlardan biri bo‘lib, ushbu davrda yaratilgan bir qator kino asarlar keng ommaviy e‘tirofga sazovor bo‘lgan. Jumladan, Yu. Agzamov tomonidan suratga olingan “Maftun bo‘ldim senga” filmida I. Akbarov, M. Burhonov va M. Leviev tomonidan yaratilgan musiqiy yechimlar milliy kuy-ohanglar va estrada uslubining o‘zaro uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Mazkur filmda Botir Zokirov ijrosidagi “Maftun bo‘ldim senga” qo‘shig‘i katta mashhurlikka erishib, o‘zbek estrada san‘atining rivojida muhim o‘rin egallagan. Shuningdek, Sh. Abbosov rejissyorligidagi “Bu haqda butun mahalla gapiradi” filmida M. Leviev tomonidan yaratilgan musiqalar asarning optimistik ruhini ifodalovchi asosiy leytmotivlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu filmda yangragan musiqiy asarlar syujet bilan uzviy bog‘langan holda badiiy ifodaviylikni kuchaytirib, keyinchalik o‘zbek estrada repertuarida mustaqil ijro etiluvchi alohida musiqiy asarlar sifatida ham keng ommalashgan.

Mustaqillik davriga kelib esa kinematografiya sohasidagi institutsional o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va bozor iqtisodiyoti sharoitlari kinomusiqasi ishlab chiqarish jarayoniga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Shu bilan birga, kinomusiqasi yaratish jarayoni bir qator tizimli muammolar bilan ham yuzlashmoqda. Xususan, iqtisodiy va tashkiliy cheklovlar sababli ko‘plab filmlarda original partituralar o‘rniga tayyor elektron musiqiy materiallardan foydalanish holatlari uchramoqda. Bu esa musiqaning badiiy va tembr imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Shuningdek, kompozitorlarning film yaratish jarayonining dastlabki bosqichlariga yetarli darajada jalb etilmasligi kinomusiqaning dramaturgik ahamiyatini pasaytiradi. Jahon kino amaliyotida esa bastakorlar film konsepsiyasini shakllantirish jarayonida faol ishtirok etuvchi ijodiy subyekt sifatida qaraladi. Bundan tashqari, raqamli platformalarning rivojlanishiga qaramay, O‘zbekistonda kinomusiqasi asarlarining Spotify, YouTube Music kabi global platformalarda alohida musiqiy mahsulot sifatida yetarli darajada targ‘ib etilmasligi ularning mustaqil madaniy mahsulot sifatida shakllanishini cheklaydi.

Jahon tajribasi, xususan turk seriallari amaliyoti kinomusiqaning mustaqil marketing obyekti sifatida rivojlantirilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunda soundtracklar alohida brend

=====
sifatida shakllantirilib, raqamli platformalarda rasmiy reliz qilinadi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng targ'ib etiladi. Shu nuqtai nazardan, kinomusiqani mustaqil madaniy-industrial segment sifatida rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Uni strategik rejalashtirish, marketing mexanizmlarini takomillashtirish, raqamli tarqatish tizimlarini kengaytirish hamda jonli ijro va konsert dasturlarini rivojlantirish orqali uning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini oshirish mumkin.

Umuman olganda, kinomusiqaning kino san'atining ajralmas qismi bo'lish bilan birga, iqtisodiy va estetik qiymatga ega mustaqil madaniy industriya sifatida qaralishi lozim. Uning tizimli rivojlanishi O'zbekiston musiqa va kino san'atining istiqboldagi taraqqiyotida muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva S. Kino va estrada musiqasi O'zbekistonda 60–80-yillar (XX asr). — *Madaniyat va San'at* jurnali, 2023, 8-son. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10044848>
2. Jabborov R. *O'zbek estrada va kino musiqasi*. Toshkent: San'at, 2018.
3. Burhonov M. *Musiqa va sahna san'ati*. Toshkent: Fan, 2003.